QASHQADARYO VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI

“XXI ASR KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH: TA’LIMDA YANGICHA YONDASHUVLAR VA XALQARO TAJRIBALAR

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA TO‘PLAMI

“Ta'lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu – maktab. Maktabni maktab qiladigan kuch esa o'qituvchilardir”

“Kelajak avlodimiz taqdiri, butun millatimiz, xalqimiz, davlatimiz taqdiri muhtaram muallimlarga bog'liq”.

"Maktab — bu shunchaki devorlar va darsliklar emas, bu insonning o'zligini kashf etadigan va kelajak poydevori qo'yiladigan muqaddas dargohdir."

Qarshi 2026

Ushbu to‘plamdan yurtimizdagi ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar, ta’lim tizimiga kiritilayotgan yangiliklar, xalqaro tajribalar, jahon ta’lim tizimidagi o‘zgarishlarga asosan ta’lim tizimiga yangiliklarni kiritish,sun’iy intellektdan foydalanishning samarali usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, ta’limni transformatsiyalash sharoitida maktab o‘qituvchilarning zamon talablaridan kelib chib darslarni tashkil etishda o‘qituvchilarni pedagogik mahoratini rivojlantirishning innovatsion yondavshuvlar, maktab o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishidagi xorij tajribalari qo‘llash va ularning tahlili, maktab o‘qituvchilarining psixologik va pedagogik ko‘nikmalarini takomillashtirishning zamonaviy yechimlar, uzluksiz kasbiy rivojlantirishda maktab o‘qituvchilarining raqamli transformatsion mahoratini oshirish masalalariga doir maqola va tezislar o‘rin olgan.

Mas’ul muharrir:

N. Oripova - Qashqadaryo viloyati pedagogik mahorat markazi direktori

Bosh muharrir o‘rinbosari:

S.R.Irisova - Qashqadaryo viloyati pedagogik mahorat markazi “Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim” kafedrasi mudiri

Texnik muharrir:

X.Rajabova - Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Tahrir hay’ati a’zolari:

F.Jabborov Pedagogika fanlari bo`yicha falsafa doktori (PHD), dotsent.
L.Umarov Pedagogika fanlari bo`yicha falsafa doktori (PHD).
B.Yuldoshev - Amaliy va ijtimoiy fanlarni o‘qitish metodikasi kafedra mudiri
D.Azizova Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi
M.Zaripova Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi
U.Karimova Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi
D.Razzakova Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
G.Qarshiyeva Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
X.Qurbonova Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
M.Sadinova Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas’uldir.

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to‘plami Qashqadaryo viloyati pedagogik mahorat markazi ilmiy-metodik kengashining 2026-yil 3-mart 2-sonli yig‘ilish qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan. To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas’uldir.

© QashqadaryoVPMM, 18.04.2026

MUNDARIJA

1-sho‘ba: XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishda texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati; innovatsion pedagogik texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati			
№	**Maqola nomi**	**Muallif ismi va sharifi**	**Betlari**
1	Ta’lim jarayonida XXI asrda yosh avlodni tarbiyalash innovatsion, interfaol va didaktik usullardan foydalanish ahamiyati	N.Sh.Oripova	6-8-bet
2	Malaka oshirish jarayonida XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishda pedagogik texnologiyalarni o‘rni	Q.M.Azizova	9-11-bet
3	Ta’limda zamonaviy boshqaruv usullarini qo‘llashning ustivor yo‘nalishlari	D. Yavkochdiyeva	11-13-bet
4	O‘quvchi-yoshlarni hayotga tayyorlashda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘llari	D.S.Shaniyazova	14-20-bet
5	Oliy ta’limda bo‘lajak boshlang’ich ta’lim talabalarida kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari	N.I.Raxmatova	20- 22 bet
6	Анализ современных психологических подходов к развитию креативного мышления	N.I.Raxmatova	22-24 bet
7	Психолого-педагогические основы развития креативного мышления будущих учителей начальных классов в условиях глобализ	N.I.Raxmatova	24-27 -bet
8	Boshlang‘ich sinflar uchun tarbiya fanidan o‘quv dasturi “XXI asr ko‘nikmalari”asosida	D.Y.Azizova	27-30-bet
9	XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish: ta’limda yangicha yondashuvlar va xalqaro tajribalar	L.N.Elmonov	30-34-bet
10	Innovatsion ta’lim muhitida o‘qituvchilarning tanqidiy va kreativ fikrlashini rivojlantirishning psixologik mexanizmlari	M.T.Soliyev	34-36-bet
11	Talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati	S.M.Xurramova	37-40-bet
12	XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishda ta’limda yangicha yondashuvlar va xalqaro tajribalar	M.Karamova D.Nasirullayeva	41-42 -bet
13	Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda sahnalashtirilgan o‘yinlar orqali kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish texnologiyasi	O.A.Kaxxarova A.A.Bozorova	43-45-bet
14	Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglarida XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish muhim omil sifatida	S.O.Norbayeva	45-46 bet
15	XXI-asr zamonaviy jamiyatda nogironligi bo‘lgan bolalarning ijtimoiy moslashuvini nazariy asoslari	M.M.Turdimurodova	47-49-bet
16	Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali axloqiy o‘zgarishlarni kuzatish va baholash	A.Z.Xolmo‘minova	49-51-bet

texnologiyalarni keng joriy etish, o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda xalqaro ilg‘or tajribalarni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish zarur. Ushbu yondashuvlar orqali raqobatbardosh, ijodkor va mustaqil fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020 yil 23 sentyabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son Farmoni. “O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”. – Toshkent, 2019 yil.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta’lim sohasiga oid qarorlari to‘plami. – Toshkent, 2021.
4. Partnership for 21st Century Skills (P21). *Framework for 21st Century Learning*. – Washington DC, 2019.
5. Slavin R. *Educational Psychology: Theory and Practice*. – Boston: Pearson Education, 2012.
6. Geografiya fanini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2022.
7. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
8. Raqamli ta’lim va innovatsiyalar asoslari. – Toshkent, 2023.
9. GIS texnologiyalaridan ta’limda foydalanish bo‘yicha metodik qo‘llanma. – Toshkent, 2022.
10. Finlyandiya, Singapur va Janubiy Koreya ta’lim tizimi tajribalari bo‘yicha tahliliy materiallar. – Xalqaro ta’lim tadqiqotlari markazi, 2021.

INNOVATSION TA’LIM MUHITIDA O‘QITUVCHILARNING TANQIDIY VA KREATIV FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО И КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧИТЕЛЕЙ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ

Soliyev Mirzoxid Tursunxo‘jayevich
Andijon viloyati Pedagogik mahorat markazi
Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada innovatsion ta’lim muhitida o‘qituvchilarning tanqidiy va kreativ fikrlashini rivojlantirishning psixologik mexanizmlari tizimli yondashuv asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda kognitiv va metakognitiv jarayonlar, refleksiv faoliyat, motivatsion determinantlar hamda ijtimoiy-interaktiv omillarning o‘zaro integratsiyasi ochib berilgan. Shuningdek, konstruktivistik yondashuv asosida pedagogik faoliyatni tashkil etish orqali o‘qituvchilarda yuqori darajadagi fikrlash kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlari ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar: innovatsion ta’lim muhiti, tanqidiy fikrlash, kreativ fikrlash, psixologik mexanizmlar, refleksiya, metakognitsiya, pedagogik texnologiyalar, kasbiy kompetensiya.

Аннотация. В статье научно проанализированы психологические механизмы развития критического и креативного мышления учителей в условиях инновационной образовательной среды. Раскрыта роль когнитивных процессов, рефлексии, мотивации и метакогнитивных стратегий в профессиональной деятельности педагога. Также обоснованы методы развития данных видов мышления на основе современных образовательных технологий.

Ключевые слова. инновационная образовательная среда, критическое мышление, креативное мышление, психологические механизмы, рефлексия, метакогниция, педагогические технологии, профессиональная компетентность.

Abstract. This article scientifically analyzes the psychological mechanisms for developing teachers' critical and creative thinking in an innovative educational environment. The role of cognitive processes, reflection, motivation, and metacognitive strategies in teaching practice is revealed. Moreover, methods for developing these types of thinking based on modern educational technologies are substantiated.

Key words. innovative educational environment, critical thinking, creative thinking, psychological mechanisms, reflection, metacognition, pedagogical technologies, professional competence.

Bugungi kunda ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarning keng joriy etilishi o‘qituvchilardan yangi turdagi kasbiy kompetensiyalarni talab qilmoqda. Xususan, tanqidiy va kreativ fikrlash o‘qituvchi faoliyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Zamonaviy ta’lim muhitida o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantiruvchi fasilitator sifatida namoyon bo‘lishi lozim.

Axborot oqimining keskin ortishi, texnologik taraqqiyotning jadallashuvi hamda global raqobatning kuchayishi sharoitida an’anaviy, reproduktiv yondashuvlarga asoslangan ta’lim modeli o‘z samaradorligini tobora yo‘qotib bormoqda. Bugungi kunda bilimlarning tez yangilanib borishi, kasblarning transformatsiyaga uchrashi va mehnat bozorida moslashuvchan kompetensiyalarga bo‘lgan ehtiyojning ortishi o‘qituvchilardan yangicha fikrlash usullarini talab etmoqda. Endilikda faqat tayyor bilimlarni uzatish emas, balki ularni tahlil qilish, qayta ishlash va amaliyotga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda [5].

Shu nuqtai nazardan, pedagoglarning tanqidiy tahlil qilish, mavjud axborotlarga nisbatan asosli munosabat bildirish, turli manbalarni solishtirish va xulosalar chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirish zarurati ortib bormoqda. Bunda tanqidiy fikrlash o‘qituvchining kasbiy faoliyatida qaror qabul qilishning ilmiy asoslanganligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, zamonaviy ta’lim jarayonida yuzaga kelayotgan murakkab va noan’anaviy vaziyatlar pedagoglardan yangicha g‘oyalar ishlab chiqish, kreativ yondashuvni qo‘llash hamda muammolarga innovatsion yechimlar topishni talab qiladi [1].

Tanqidiy va kreativ fikrlash zamonaviy pedagogik faoliyatning muhim tarkibiy komponentlari sifatida o‘qituvchining kasbiy samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash bu axborotni chuqur tahlil qilish, uni turli nuqtai nazardan baholash, dalillarni solishtirish va mantiqan asoslangan xulosalar chiqarishga qaratilgan murakkab kognitiv jarayondir. U refleksiv yondashuv, mantiqiy izchillik va analitik tafakkur bilan uzviy bog‘liq [4]. Kreativ fikrlash esa muammolarga noodatiy yondashish, yangi g‘oyalar yaratish va innovatsion yechimlar ishlab chiqish bilan tavsiflanib, divergent tafakkur asosida shakllanadi. Ushbu fikrlash turi muammoni turli rakurslardan ko‘ra olish, bir nechta alternativ yechimlarni ilgari surish va mavjud stereotiplarni yengib o‘tish qobiliyati bilan ajralib turadi. Kreativ fikrlash jarayonida originallik, moslashuvchanlik va g‘oyalar oqimining serqirraligi muhim psixologik komponentlar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois, u nafaqat yangi bilimlarni yaratish, balki mavjud bilimlarni qayta talqin qilish va ularni yangi vaziyatlarga moslashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi [5].

Psixologik nuqtai nazardan, mazkur fikrlash turlari bir qator o‘zaro bog‘liq jarayonlarga tayanadi. Jumladan, kognitiv jarayonlar idrok, xotira va tafakkur axborotni qabul qilish, qayta ishlash va tizimlashtirishning asosiy mexanizmlarini tashkil etadi. Metakognitsiya esa shaxsning o‘z fikrlash faoliyatini anglash va nazorat qilish qobiliyati sifatida tanqidiy fikrlashning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. U o‘z ichiga fikrlash jarayonlarini rejalashtirish, monitoring qilish va baholash kabi bosqichlarni qamrab oladi. Metakognitiv ko‘nikmalar rivojlangan shaxs o‘z bilim darajasini real baholay oladi, muammoni hal etishda samarali strategiyalarni tanlaydi va zarur hollarda ularni moslashtira oladi [6]. Shu jihatdan, metakognitsiya tanqidiy fikrlashning asosiy mexanizmlaridan biri bo‘lib, u o‘qituvchining kasbiy faoliyatida ongli qaror qabul qilish,

xatolarni aniqlash va o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonlarini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, motivatsiya, ayniqsa ichki rag‘bat va bilishga bo‘lgan qiziqish kreativ fikrlashni faollashtiruvchi asosiy psixologik omillardan biri hisoblanadi.

Refleksiya o‘qituvchining o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilish, o‘z xatti-harakatlarini baholash va kasbiy faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi muhim mexanizmdir. Refleksiv yondashuv orqali o‘qituvchi o‘z tajribasini qayta ko‘rib chiqadi va yangi pedagogik strategiyalarni ishlab chiqadi [2].

Innovatsion ta’lim muhiti ushbu fikrlash turlarini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan psixologik va pedagogik sharoitlarni yaratadi. Bunday muhit zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan bo‘lib, o‘qituvchilarning ijodiy va mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi. Innovatsion ta’lim muhiti ochiq va erkin fikrlashni rag‘batlantiradi, tajriba asosida o‘rganish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda raqamli vositalardan samarali foydalanish orqali ta’lim jarayonining interaktivligini ta’minlaydi [3]. Bunday muhitda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi an’anaviy “bilim beruvchi qabul qiluvchi” modeli o‘rnini hamkorlikka asoslangan faoliyat egallaydi. Natijada, o‘quv jarayoni dialogik xarakter kasb etib, unda fikr almashish, muhokama qilish va birgalikda muammo yechish jarayonlari ustuvor ahamiyatga ega bo‘ladi.

Innovatsion muhit shaxsning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda differensial yondashuvni ta’minlaydi, bu esa har bir ishtirokchining o‘z salohiyatini namoyon etishiga imkon yaratadi. Raqamli texnologiyalar esa axborotga tezkor kirish, uni qayta ishlash va vizual tarzda ifodalash orqali kognitiv faollikni oshiradi. Shu tariqa, innovatsion ta’lim muhiti nafaqat bilimlarni egallash, balki yuqori darajadagi tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun qulay psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni shakllantiradi [6].

Shuningdek, bunday muhit o‘qituvchilarda hamkorlikda ishlash, fikr almashish va jamoaviy muammolarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Natijada, pedagoglar o‘z faoliyatiga nisbatan tanqidiy yondashishni o‘rganadi va yangi innovatsion g‘oyalarni ilgari surishga intiladi.

O‘qituvchilarda tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirish muayyan psixologik mexanizmlar orqali amalga oshadi. Xususan, motivatsion mexanizm o‘qituvchining ichki ehtiyojlari va qiziqishlari asosida uning ijodiy faoliyatini rag‘batlantiradi. Refleksiv mexanizm esa o‘z faoliyatini tahlil qilish orqali mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishga xizmat qiladi. Metakognitiv mexanizm fikrlash jarayonlarini ongli boshqarish orqali tanqidiy tafakkurni rivojlantiradi. Ijtimoiy-interaktiv mexanizm esa hamkorlikdagi faoliyat, muloqot va diskussiya jarayonida yangi bilim va g‘oyalarni shakllantirish imkonini beradi [5].

Mazkur psixologik mexanizmlarni samarali rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar muhim vosita hisoblanadi. Interaktiv metodlar, muammoli va loyihaviy ta’lim, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘qituvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtiradi va ularni mustaqil izlanishga undaydi [1]. Refleksiv mashg‘ulotlar esa o‘z-o‘zini tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini shakllantirish orqali kasbiy rivojlanishni ta’minlaydi.

Tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida o‘qituvchilarning analitik fikrlash darajasi sezilarli darajada oshadi, kreativ yondashuvlari rivojlanadi, kasbiy refleksiya chuqurlashadi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati shakllanadi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim sifatini oshirishga va o‘quvchilarda yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sohasiga oid normativ hujjatlari.
2. Ishmuhamedov R.J. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – T., 2010.
3. Muslimov N.A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T., 2016.
4. Guilford J.P. Creativity Research. – 1987.
5. Trilling B., Fadel C. 21st Century Skills. – 2009.
6. Flavell J.H. Metacognition and Cognitive Monitoring. – 1979.